O‘ZBEKISTONDA
xalqaro tijorat arbitraji qarorlarini tan olish
va ijroga qaratish tarixi

Mamlakatimizda xalqaro tijorat arbitraji va chet davlat tijorat arbitraji qarorlarini tan olish va ijroga qaratishi nisbatan yangi tushuncha deyishimiz mumkin. O‘zbekistonda xalqaro tijorat arbitraji va chet davlat arbitraji qarorlarini tan olish va ijroga qaratish to‘g‘risidagi qonunchilik keyingi yillarda amalga oshirilgan islohotlar natijasida ancha takomillashgan.



O‘zbekistonda xalqaro tijorat arbitraji va chet davlat arbitraji qarorlarini tan olish va ijroga qaratish to‘g‘risida to‘xtalar ekanmiz, uni shartli ravishda quyidagi tarixiy bosqichlarga bo‘lish mumkin:

1) 1991-yilgacha bo‘lgan davr;

2) 1991-yildan keyingi davr.

O‘zbekiston sobiq ittifoq tarkibida bo‘lgan davrda ham xalqaro tijorat arbitraji va arbitraj hal qiluv qarorlarini tan olish va ijroga qaratish to‘g‘risida qonunchilik takomillashtirib borilgan. Hakamlik, arbitraj va davlat arbitraji tushunchalari mavjud bo‘lgan.

Sovet ittifoqi tashkil topgan dastlabki paytlarda – 1920-yillarida “arbitraj komissiyalari”, ya’ni davlat tashkilotlari o‘rtasidagi nizolarni hal qiluvchi organlar tashkil qilingan[1]. 1931-yilga kelib esa ushbu komissiyalar tugatilib, ularning o‘rniga “davlat arbitraji” deb nomlangan organlar tizimi tashkil qilingan[2]. 1931-yilda ittifoqda qabul qilingan “Davlat arbitraji to‘g‘risida”gi nizomning 4-moddasi “b” bandiga asosan davlat arbitraji ittifoqdosh davlatlar markaziy organlari o‘rtasida yuzaga keladigan, shu bilan bir qatorda ittifoqdosh davlatlar iqtisodiy kengashi (majlisi) huzurida – bir tomon davlat markaziy organi yoki respublika darajasidagi tashkilot bilan yuzaga kelgan nizolarni hal qilish uchun tashkil topishi belgilangan[3]. Ushbu nizomning 5-moddasiga asosan davlat arbitrlari Mehnat va mudofaa kengashi, ittifoqdosh davlatlar iqtisodiy kengashi (majlisi) avtonom respublikalar xalq komissarlari kengashi, tegishliligi bo‘yicha viloyat ijroiya qo‘mitalari tomonidan tayinlanishi belgilangan[4].

Demak, sobiq ittifoqda qabul qilingan “Davlat arbitraji to‘g‘risida”gi nizom nizolarni muqobil tarzda hal qilishning huquqiy asoslarini belgilab bergan.

S. Nikolyukinning fikricha, 1932-yilda umumittifoq savdo-sanoat palatasi huzurida Tashqi savdo arbitraj komissiyasining tashkil topishi hakamlik sudlari sobiq ittifoq davlatlari hududida katta ahamiyatga ega bo‘lganining yaqqol namunasidir.

Shuni ta’kidlash lozimki, Tashqi savdo arbitraj komissiyasi tashkil topishidan oldin sobiq ittifoq hududida tashqi savdo munosabatlaridan kelib chiqadigan nizolarni muqobil tarzda hal qilishning qonuniy asoslari va mexanizmlari ishlab chiqilmagan.

Tashqi savdo arbitraj komissiyasining birinchi qarori esa 1933-yil 15-noyabrda qabul qilingan. Ushbu komissiya tashkil qilinganidan boshlab 1941-yilga qadar 100 ga yaqin nizo ko‘rib chiqilgan va hal qilingan. Mazkur nizolarda Osiyo, Yevropa va Amerika davlatlarining ko‘plab tashkilotlari, firmalari va muassasalari qatnashgan. Nizolarni hal qilishda nafaqat milliy, balki xorijiy qonunchilik normalari ham inobatga olingan. Tashqi savdo arbitraj komissiyasining faoliyati xorijiy manbalarda ham yoritilib, uning adolatli va vakolatli komissiya bo‘lgani ta’riflangan.

1960-yilga qadar sovet ittifoqidagi tashqi savdo bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar va Sharqiy Yevropa davlatlari tashkilotlari o‘rtasida yuzaga kelgan nizolar unchalik katta miqdorni tashkil qilmagan va asosan sovet iqtisodiy hamkorligiga a’zo davlatlar o‘rtasida ilmiy-texnik va iqtisodiy hamkorlik jarayonida yuzaga kelgan. Sotsialistik davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlikning rivojlanishi nizolarning sezilarli darajada ortishiga olib kelgan. 1980-yillarning oxirigacha ushbu komissiya 300 dan ortiq nizoni ko‘rib chiqqan. 1987-yilga kelib esa Tashqi savdo arbitraj komissiyasining nomi Sovet ittifoqi savdo-sanoat palatasi huzuridagi Arbitraj sudi deb o‘zgartirilgan.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin qonunchilik normalarini takomillashtirishga katta e’tibor qaratildi.

[1] Постановление ВЦИК и СНК РСФСР от 21 сентября 1922 г. «Положение о порядке разрешения имущественных споров между государственными учреждениями и предприятиями (Собрание узаконений и распоряжений Рабочего и Крестьянского Правительства. Отдел первый. № 60. Стр. 769.

[2] Постановление ЦИК и СНК СССР от 3 мая 1931 г. № 5/298 «Положение о государственном арбитраже» (Собрание законов и распоряжений Рабоче-крестьянского правительства Союза советских социалистических республик. Отдел первый. № 26. Стр. 203.

[3] Николюкин С.В. Международный коммерческий арбитраж [Электронный ресурс] // Электронная библиотека. URL: https://thelib. ru / books / s_v_ nikolyukin / mezhdunarodnyy_kommercheskiy_arbitrazh-read-4. html.

[4] “История развития международного коммерческого арбитража в России” Андреева Мария Валерьевна, Young Scientist, ф. # 53 (395) . December 2021, Стр. 45.



O‘zbekiston Oliy Majlisining 1995-yil 22-dekabrdagi “1958-yil 10-iyundagi xalqaro hakamlik qarorlarining ijrosini ta’minlash va ularni tan olish bo‘yicha Nyu-York konvensiyasiga qo‘shilish to‘g‘risida”gi 184-I qaroriga asosan mamlakatimiz mazkur konvensiyaga qo‘shilgan[5].

2013-yil 24-may kuni O‘zbekiston Oliy xo‘jalik sudi plenumining “Chet davlat sudi yoki hakamlik qarorini tan olish va ijroga qaratish hamda chet davlat sudining topshirig‘ini ijro etish to‘g‘risidagi ishlarning xo‘jalik sudlari tomonidan ko‘rilishida qonun hujjatlarini qo‘llashning ayrim masalalari haqida”gi qarori qabul qilinishi ham katta ahamiyatga molik bo‘ldi. Ushbu qarorda chet davlat sudi yoki hakamlik qarorini tan olish va ijroga qaratish mexanizmi batafsil yoritib berildi[6].

Fuqarolik-protsessual kodeksi va Iqtisodiy-protsessual kodeksida chet davlat va arbitraj qarorlarini tan olish va ijroga qaratishning mexanizmlari batafsil yoritilgan.

2011-yil 1-fevralda O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi ijroiya qo‘mitasining qaroriga asosan palata qoshida Xalqaro tijorat arbitraj (hakamlik) sudi tashkil qilingan va bu organ 2011-yi 15-fevralda adliya organi ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

O‘zbekiston Prezidentining 2020-yil 17-iyundagi “Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4754-qarori nizolarni sudgacha ko‘rib chiqishning yagona tizimini yaratish, mediatsiya, hakamlik sudlari hamda xalqaro arbitrajlarning rolini tubdan oshirish, ularning fuqarolar hamda tadbirkorlarning ishonchiga sazovor bo‘ladigan institutlarga aylanishida muhim huquqiy asos bo‘ldi.

O‘zbekistonda xalqaro tijorat arbitraji qarorlarini tan olish va ijroga qaratishda qo‘yilgan yana bir muhim qadam 2021-yil 16-fevralda “Xalqaro tijorat arbitraji to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi hisoblanadi. Unda xalqaro tijorat arbitraji, arbitraj, arbitr kabi tushunchalarga batafsil ta’rif berilib, xalqaro tijorat arbitrajiga aloqador barcha jihatlar yoritilgan.

O‘zbekiston Prezidentining 2018-yil 5-noyabrdagi qaroriga asosan esa O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi huzurida Toshkent xalqaro arbitraj markazi (TIAC) tashkil etildi.

TIAC

TASHKENT INTERNATIONAL ARBITRATION CENTRE

Tashqi savdo arbitraj komissiyasining birinchi qarori esa 1933-yil 15-noyabrda qabul qilingan. Ushbu komissiya tashkil qilinganidan boshlab 1941-yilga qadar 100 ga yaqin nizo ko‘rib chiqilgan va hal qilingan. Mazkur nizolarda Osiyo, Yevropa va Amerika davlatlarining ko‘plab tashkilotlari, firmalari va muassasalari qatnashgan.

Yuqorida keltirib o‘tilganlardan xulosa qilish mumkinki, O‘zbekistonda chet davlat sudi qarori va arbitraj qarorlarini tan olish va ijroga qaratish, mediatsiya, arbitraj kabi tushunchalar ancha uzoq o‘tmishga ega bo‘lib, bugungi kunda huquqiy jihatdan takomillashgan qonunchilikni o‘z ichiga oladi.

Xurshid MAXMUDOV,
Toshkent davlat yuridik universiteti o‘qituvchisi,
“Makhmudov Legal” advokatlik byurosi advokati

[5] Олий Мажлиснинг 1995 йил 22 декабрдаги “1958 йил 10 июндаги халқаро ҳакамлик қарорларининг ижросини таъминлаш ва уларни тан олиш бўйича Нью-Йорк конвенциясига қўшилиш тўғрисида”ги 184-I қарори.

[6] Ўзбекистон Олий хўжалик суди пленумининг 2013 йил 24 майдаги “Чет давлат суди ёки ҳакамлик қарорини тан олиш ва ижрога қаратиш ҳамда чет давлат судининг топшириғини ижро этиш тўғрисидаги ишларнинг хўжалик судлари томонидан кўрилишида қонун ҳужжатларини қўллашнинг айрим масалалари ҳақида”ги қарори.